NAVOIY VILOYATI XATIRCHI TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

Xatirchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 34 uy, e-mail: xatirchi@nv.uz

2023 - yil 1 - noyabr 267-5-77-Q/23 Xatirchi tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat boz orida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 38-39-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 43-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-57-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan 2024-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat

bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yishi lozim bo‘lgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun zaxiralangan ish o‘rinlari, xodimlarining o‘rtacha soni 20 nafar va undan ko‘pni tashkil etadigan 103 ta korxona, tashkilot va muassasalarda 2024-yil uchun 7 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorda - jami 185 ta ish o‘rinlarini, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalar toifasi uchun 28,7 foiz 53 nafar;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik uyi” bitiruvchilari, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari toifasi uchun 28,7 foiz 53 nafar;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyaning, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar toifasi uchun 10,2 foiz 19 nafar;

nogironlar bo‘lgan shaxslar toifasi uchun 6,4 foiz 12 nafar;

pensiyaoldi yoshdagi shaxslar toifasi uchun 8,1 foiz 15 nafar;

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar toifasi uchun 1,6 foiz 3 nafar;

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar toifasi uchun 1,6 foiz 3 nafar;

og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar toifasi uchun 14,7 foiz

27 nafarni tashkil etadi.

3. Ushbu toifaga mansub shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalar toifasi uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lganligini hisobga olgan holda ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik uyi” bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari toifasi uchun-ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyaning, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar toifasi uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar toifasi uchun - o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olgan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan, yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga

ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

4. Ish o‘rinlarini band qiluvchi korxona va tashkilotlar rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq ushbu qarorning ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlash;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun tashkilot va korxonalar 2023-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish o‘rinlari umumiy miqdorining kamida 25 foizi https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali zaxiralanib qo‘yilishini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlanguniga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini tumandagi tashkilot va korxonalar https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali belgilangan ish o‘rinlarini zaxiralanganligi to‘g‘risida xabardor qilish;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar, ya’ni 2024-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan keyin

10 kundan kechikmay https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali ish o‘rinlari zaxiralanganligi to‘g‘risida xabardor qilish;

tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Tashkilot tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot va korxonalarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanishi ko‘rsatib o‘tilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘ga asosan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya ajratilishi tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (I.Toshonov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (I.Toshonov) mazkur qarorni o‘n kun muddatda qarorning ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlariga yetkazsin, ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirsin.

9. Mazkur qaror e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb

saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **U.Adizov**

Xatirchi tuman hokimining
2023-yil 1-noyabrdagi
267-5-77-Q/23-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonini va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qaroriga asosan tuman bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2024-yilda band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida MA’LUMOT

T/r	Tashkilot-lar STIRI	Zaxiralangan ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha topshiriq berilgan korxona nomi	Shtat birligi bo‘yicha xodimlarning o‘rtacha umumiy soni	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam soni	Shundan							
					O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalari	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik uyi” bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyaning, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar	Odam savdosidan jabrlanganlar	Og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar
x	**x**	**103**	**9658**	**185**	**53**	**53**	**19**	**12**	**15**	**3**	**3**	**27**
1	204586085	1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	81	2		1						1

2	203662507	2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	86	2	1			1				
3	206868151	3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	53	1		1						
4	203446118	4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	85	2	1				1			
5	204618273	5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	81	1		1						
6	204699009	6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	88	2	1		1					
7	203080789	7-sonli ingliz tili fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	109	2		1	1					
8	206889901	8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	41	1		1						
9	204023840	9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	112	3	1	1						1
10	203689005	10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	79	2		1	1					
11	203236465	11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	69	2	1		1					
12	203356048	12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	93	3	1	1						1
13	203386311	13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	87	2		1	1					
14	203629466	14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	74	2	1							1
15	203539000	15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	83	2		1						1
16	204837714	16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	81	2	1		1					
17	203787840	17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	86	2	1	1						
18	204312007	18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	79	2	1		1					
19	204276202	19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	85	2	1				1			
20	203324349	20-sonli informatika va axborot texnologiyalari fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	94	3	1	1						1
21	203654319	22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	89	2	1	1						
22	204411739	24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	87	2		1						1
23	206889893	25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	57	2	1							1
24	204394246	27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	62	2	1							1
25	206868104	28-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	46	1		1						
26	206868096	29-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	39	1	1							
27	206867984	30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	56	1		1						
28	204739732	31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	66	1		1						
29	204299134	32-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	51	2	1	1						
30	203352512	33-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	86	2					1			1
31	204279174	34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	50	1	1							
32	203420815	35-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	71	1	1							
33	204749561	36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	88	2		1			1			
34	204307312	38-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	88	2	1		1					
35	203345393	39-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	78	2	1	1						
36	206868112	40-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	48	1		1						
37	206868089	41-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	53	1				1				
38	206868057	42-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	54	2		1		1				
39	204761636	43-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	65	1				1				

40	204309959	44-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	82	2		1		1				
41	203349443	45-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	97	2		1	1					
42	203349450	46-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	74	2	1	1						
43	206904977	50-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	44	1								1
44	204416501	51-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	75	1	1							
45	204364425	52-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	73	2	1			1				
46	204307304	53-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	61	1		1						
47	204341224	54-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	98	2	1		1					
48	203327154	55-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	98	2	1	1						
49	204783410	57-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	55	1		1						
50	204299141	58-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	59	1								1
51	206889861	59-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	70	2	1				1			
52	206889839	60-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	36	1		1						
53	206868064	61-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	42	1								1
54	206868072	62-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	46	1				1				
55	206868183	64-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	46	1		1						
56	203420823	65-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	53	2		1			1			
57	206889885	66-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	48	1		1						
58	206868018	67-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	56	1	1							
59	206889940	68-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	35	1		1						
60	204127014	69-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	67	1	1							
61	206868040	70-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	60	1	1							
62	206904984	71-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	47	1		1						
63	206889854	72-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	62	2	1	1						
64	204783403	73-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	59	1		1						
65	203420847	74-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	65	2	1			1				
66	204591302	75-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	51	1				1				
67	206868033	77-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	50	2		1						1
68	203324356	78-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	61	1		1						
69	206889918	79-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	38	1	1							
70	203723342	81-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	62	2	1	1						
71	204339154	83-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	54	2		1						1
72	206868129	84-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	69	1		1						
73	204761629	85-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	69	2		1			1			
74	308825160	89-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	52	1			1					
75	308825944	90-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	31	1		1						
76	308826223	91-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	46	1	1							
77	206962764	1-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	78	1	1							
78	206962771	2- Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	71	1								1
79	206962804	3-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	47	1	1							
80	206962788	4-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	31	1								1
81	206962795	5-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	63	1	1							
82	206962867	6-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	41	1	1							

83	206962843	7-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	67	1		1						
84	206962811	8-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	57	1	1							
85	206962835	9-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	62	1					1			
86	206962828	10-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	41	1	1							
87	206962850	11-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	36	1		1						
88	206962874	12-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	25	1	1							
89	206962882	13-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	36	1	1							
90	305671894	14-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	51	1								1
91	306689221	15-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	25	1	1							
92	306689238	16-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	22	1								1
93	306689245	17-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	35	1				1				
94	306689253	18-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	25	1								1
95	306689260	19-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	36	1				1				
96	306689300	20-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	75	1	1							
97	206867991	Xatirchi tuman Sport maktabi	131	2			1		1			
98	200026285	Xatirchi tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	65	2	1							1
99	200026301	Xatirchi tuman Madaniyat bo‘limi	69	2			1		1			
100	204658969	Xatirchi tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	225	5			1		1	1	1	1
101	200023432	Xatirchi tuman Yo‘l xo‘jaligi bo‘limi	173	2			1				1	
102	200026239	Xatirchi tuman Tibbiyot birlashmasi	2124	30	7	7	4	1	4	2	1	4
103	200026214	Xatirchi tuman Sanitariya - epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi	103	2		1						1